Kutubxona-axborot faoliyati

Fakultet dekani:



Davlatov Soyibnazar Xujaniyozovich

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining «Madaniyat va san’at fidokori» ko‘krak nishoni sohibi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent, 1 ta monografiya, 3 ta o‘quv qo‘llanma, 1 ta o‘quv uslubiy qo‘llanma 80 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar muallifi

Qabul kunlari: Har kuni (yakshanbadan tashqari) soat 14:00 dan 16:00 gacha.

☎ **Telefon:**71 230 28 45

e-mail:

Fakultet tasarrufidagi kafedralar:

- “Kutubxonashunoslik” kafedrasi
- “Kutubxona fondlari va bibliografiyashunoslik” kafedrasi
- “Axborot texnologiyalari” kafedrasi
- “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi
- “Jahon tillari va adabiyoti” kafedrasi

Fakultet qisqa tarixi:

“Kutubxonashunoslik” fakulteti 1974-yili Toshkent Davlat madaniyat instituti qoshida tashkil qilingan bo‘lib, unga filologiya fanlari doktori, professor Jalolov G‘ayrat Oripovich rahbarlik qilgan. Uning tasarruvida 3 ta kafedra mavjud bo‘gan. “Kutubxonashunoslik” kafdra mudiri tarix fanlari doktori professor Qosimova Osiyo G‘ovurovna, “Bibliografiya” kafdra mudiri filologiya fanlari doktori professor Vulis Abram Zinovyvech, “Kutubxona fondlar va kataloglari” kafedra mudiri Rahimova Maloxat Asadivna. Keyinchalik 4-kafedra ochilgan “Texnika vositalari, informatika va HZTA” kafdra mudiri Rasulov Tursunboy Fayziyevich. Keyingi yillarda fakultetga filologiya fanlari doktori, professor Egamov Xudoybergan Egamovich, dotsentlar O.Kelganov, A.T. To‘laganov, SH.M.Shamsiyev, U.F.Karimov yetakchilik qilgan.

2001-yildan fakultet nomi o‘zgartilib “Kutubxona-axborot faoliyatini boshqaruv” deb o‘zgartirilgan. Shundan keyingi yillarda fakultetda “Kutubxonashunoslik va axborot tizimlari” ta’lim yo‘nalishida mutaxasislar tayyorlana boshladi. Buni tugatganlar “Kutubxonachi bibliograf”, “Arxivshunos”, “Kitobshunos” va ish yurutuvchi lavozimida ishlashga mo‘ljallangan mutaxasislar tayyorlangan.

2012-yilga qadar fakultet Toshkent axborot texnologiyalari universisteti tarkibiga o‘tganga qadar 4 ta kafedra faoliyat yuritgan. “Kutubxonashunoslik” uning tarkibida ishlagan xodimlar asosan kutubxonachilik ishining nazariy masalalarini o‘rganish bilan birga, kutubxonachilik ishining tarixi bo‘yicha darslik, o‘quv qo‘llanma, uslubiy ko‘rsatmalarni yaratishgan. Kafedrada fan doktorlaridan O.G‘ Qosimova, E.O Oxunjonovlar faoliyat yuritishgan. O.G‘ Qosimova asosan kutubxonachilik ishi tarixi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan va umumiy kutubxonashunoslik mavzusida nazariy va darslik adabiyotlarini yaratgan. E.O Oxunjonov O‘rta Osiyo va O‘zbekistonda kutubxonachilik, kitobshunoslik bibliografiya ishlarini tashkil qilish bo‘yicha darsliklar, monagrafiya, o‘quv qo‘llanmalarni nashrga tayyorlagan. Kafedraning dotsenti lavozimida ishlagan A.I.Kormelitsin, I.M.Troiskaya, M.M.Rasulov, M.X.Mahmudov, A.P.Kavalenka, B.I.G‘aniyevalar soha bo‘yicha izlanishlarni olib borgan mutaxasislar bo‘yicha ilmiy kitoblar, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarni nashrga tayyorlaganlar.

“Bibliografiya” kafedrasida Turopov M.M., Shamsiyev SH.M., Mamatrayemova X., Shumonova N.P. va boshqa qator olimlar faoliyat yuritgan. O‘zbekiston bibliografiyasining shakillanishi va rivojlanishini o‘rgangan olimlar, pedagogika fanlari nomzodlari SH.M. Shamsiyev M.M. Turopovlar hisoblanishadi. 1965 yili uni tugatgan SH.M. Shamsiyev mutaxasislik kafedrasida o‘qituvchi lavozimda ish boshlagan. Yosh mutaxasis kasbga bo‘lgan qiziqishi orqali kafedra o‘qituvchilari orasida tez o‘z o‘rniga ega bo‘la oldi. SH.M.Shamsiyev ilmiy faoliyatni doim pedagogik faoliyatiga qo‘shib olib borganligini ko‘rsatishimiz mumkin. Aspiranturada o‘qigan davrida ilmiy ishi bo‘yicha “Nekotoriye voprosi retrospektivnoy bibliografii periodiki dorevolyusionnogo Turkestana (1870-1917 gg.)” “Problema izucheniya periodicheskoy pechati dorevolyusionnogo Turkestana”1974 kabi maqolalrni e’lon qilgan.

1974 yili Musa Mamatovich Turopov Leningrad davlat madaniyat institutining kutubxonashunoslikk va bibliografiya ishlaridan ilmiy darajalar beruvchi kengashida “O‘zbekiston haqidagi ababiyotlar bibliografiyasining shakllanishi va rivojlanishi” mavzusidagi dissertatsiyasini himoya qilgan. Musa Mamatovich Turopov o‘zidan keyin bu o‘liy ta’lim muassasida ilmiy ish qilishgan N.P. Shumanova, M.K. Mirzaxmdova, T.D. Bayturayev, G‘.A. ham ushbu kafedraga aspiranturaga o‘qishga kirishlariga turtki bo‘lgan bo‘lsa kerak. Bu yerdagi o‘qish va bibliografik faoliyatni o‘rganish uning Turkiston o‘lkasi va O‘zbekiston bibliografiyasi bo‘yicha yetuk mutaxasis bo‘lib shakllanishiga asos bo‘la oldi.

2017 yilda O‘zDSMI qoshida kutubonachilik bibliografiya ishi bo‘yicha mutaxasislar tayyorlash yo‘nalishiga talabalr qabul qiilish yo‘lga qo‘yildi.

Yo‘nalishga o‘zbek va rus guruxlariga axborotlashgan kutubxonalar yo‘nalishiga talabalr qabul qilingan. 2018-2019 yilgi o‘quv yiliga bu yo‘naliga ananaviy kutubxonachi bibliograflar tayyorgarligi bo‘yicha talabalar qabul qilina boshlandi.

2019-yil 3-sentabrda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti rektorining 57/1-PO‘-sonli buyrug‘i bilan institutda “Kutubxona axborot faoliyati” fakulteti tashkil qilingan ochilgan.

Bakalavriat ta’lim yo’nalishlari:

• 60320400-Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya)
Magistratura mutaxassisliklari:
• 70320401-Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya)
Professor-o‘qituvchilar tarkibi:
Fakultet qoshida 2ta mutaxasislik kafidrasi faoliyat yuritmoqda. “Kutubxonashunoslik” kafedrasi mudiri M. Xakimova. “Kutubxona fondlari va bibliografiyashunoslk” kafedra mudiri T.D. Bayturayev. Shuningdek fakultet tasarufida “Axborot texnologiyalari, ”Jaxon tillari va adabiyoti” va “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedralari faoliyat yuritmoqda. Hozirgi kunda mutaxasislik kafedralarida ish olib borayotgan domlalar filolagi fanlar doktori professor I.J.Yo‘ldashev, f.f.n. O‘.Nosirov, pedagogika fanlari nozodi, dotsent M.X.Maxmudov, pedagogika fanlari nomzodi, G.A.Narzullayev, o‘qituvchilar.: Muminxo‘jayeva L.N., Ro‘ziyeva N.P., Matmurodova M.I. Umaraliyeva F.F, Say I.K., Shomuratova N., Isxoqov M. faoliyat ko‘rsatmoqdalar. Xozirgi kunda kafedra azolari tomonidan “Bibliografiyashunoslik”, “Kutubxonashunoslik” fanlaridan darslik,o‘quv qo‘llanmalar nashirdan chiqarilgan nashirdan chiqarilgan 2021yili. “Kutubxona axborot faoliyatini boshqarish”, “Kutubxona axborot faoliyatini marketingi”, fanlaridan darslik va o‘quv qo‘llanma nashirdan chiqarilmoqda. Kafedralarning boshqa fanlaridan ham darslik va o‘quv qo‘llanmalar nashirga tayyorlanmoqda. Kafedra azolari tomonida chet ellardagi impofaktri yuqori reytingli jurnallarda maqolalar nashir qilish ham yaxshi yo’lga qo‘yilgan. Har bir o‘quv yilida kamida 3tadan maqola elon qilinmoqda.Kafedralarning professori I.J. Yuldashevning, dotsentlari O‘.Nosirov, T.D. Bayturayev, M.X.Maxmudov, G.A.Narzullayev va o‘qituvchilar Muminxo‘jayeva L.N., Ro‘ziyeva N.P., Matmurodova M.I. Umaraliyeva F.F, Say I.K., Shomuratova N., Isxoqov M. larning xaqaro va maxaliy jurnalarda mutaxasislikning dolzarb masalalari bo‘yicha 30 dan ortiq maqolalari nashir qilingan, xalqaro konferensiyalarda ham kafedraning barcha azolari tomonidan 40 ortiq maqolalari elon qilingan. Respublika konferensiyalarida 50 dan ortiq maqolalri elon qilingan.
Ilmiy loyihalar:
Xalqaro hamkorlik:
Fakultetda xorijiy innovatsion hamkorliklar yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, jumladan, Rossiya davlati, Qazog‘iston respublikasi kabi davlatlardan tashrif buyurgan soha mutaxassislari bilan uchrashuvlar, mahorat darslari, tanishuv va qiziqarli suhbatlar muntazam ravishda olib boriladi va davomli borilishi yo‘lga qo‘yilgan.
Korxona va tashkilotlar bilan hamkorlik:
Iqtidorli talabalar:
Fakul’tetda ko‘plab davlat stipendiya sohiblari, davlat mukofoti sovrindorlari, Xalqaro respublika tanlovi g‘oliblari ham tahsil olgan va tahsil olib kelmoqlar. “Kutubxona-axborot faoliyati” fakul’tetidagi ta’lim jarayoni bugungi zamon talablariga mos ravishda bo‘lib, yanada takomillashtirish uchun ko‘plab say-harakatlar olib borilmoqda.Talabalarga kitobxon mahoratlarini o‘rgatib kelayotgan professor-o‘qituvchilarning xorijiy davlatlarga malaka oshirishi yo‘lga qo‘yilgan va kelajakda bu sohani rivoji uchun xizmat qilishiga shuhamiz yo‘q.